

ОCPHIQLIQ VA SHAFFOFLIQ KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING MUHIM VOSITALARIDAN BIRI

Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich

**Toshkent shahar hokimligi Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasi tadqiqotchisi, sotsiologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent.**

e-mail: txshuhrat65@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15803669>

Annotatsiya: Davlat hokimiyati organlarining jamoatchilik oldidagi ochiqqligi va shaffofligi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va qarorlar asosida tayyorlangan. Shuningdek, maqolada korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi eng muhim masalalar, muammolar va ularning yechimlari, davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqqligi va shaffofligi masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: korruptsiya, shaffoflik, ochiqqlik, axborot xavfsizligi, davlat boshqaruvi, jamoatchilik, qonun ustuvorligi.

ОТКРЫТОСТЬ И ПРОЗРАЧНОСТЬ ЯВЛЯЮТСЯ ОДНИМ ИЗ ВАЖНЕЙШИХ ИНСТРУМЕНТОВ В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ

Турдикулов Шухрат Худойкулович

**начальник отдела внутреннего антикоррупционного контроля хокимията
города Ташкента, научный сотрудник Академии государственного управления
при Президенте Республики Узбекистан, доктор философии (PhD)
по социологическим наукам, доцент.
e-mail: txshuhrat65@mail.ru**

АННОТАЦИЯ

Открытость и прозрачность органов государственной власти перед общественностью является одной из наиболее актуальных проблем современности.

Данная статья подготовлена на основе Закона Республики Узбекистан «Об открытости деятельности органов государственной власти и управления», новой Конституции Республики Узбекистан, указов и постановлений Президента Республики Узбекистан. В статье также рассматриваются наиболее важные вопросы, проблемы и пути их решения в сфере противодействия коррупции, вопросы открытости и прозрачности деятельности органов государственной власти.

Ключевые слова: коррупция, прозрачность, открытость, информационная безопасность, государственное управление, общественность, верховенство закона.

OPENNESS AND TRANSPARENCY ARE AMONG THE MOST IMPORTANT TOOLS IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION

Turdikulov Shukhrat Khudoykulovich

**Head of the Internal Anti-Corruption Control Department of the Head of the internal
anti-corruption control department of the Tashkent City administration,**

**Researcher at the Academy of Public Administration under the President of the
Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD)
in sociological sciences, Associate Professor
e-mail: txshuhrat65@mail.ru**

ANNOTATION

The openness and transparency of government bodies to the public is one of the most pressing issues of our time.

This article is based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Openness of Activities of State Authorities and Administration," the new Constitution of the Republic of Uzbekistan, and decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan. The article also examines the most critical issues, problems, and their solutions in the field of combating corruption, as well as matters of openness and transparency in the activities of government bodies.

Keywords: corruption, transparency, openness, information security, public administration, public, rule of law.

ASOSIY QISM

Respublikamizda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi doimiy va sifatli aloqa vazifasini bajaruvchi muhim elementlardan biridir.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ularning barcha sohalariga keng joriy etilishi natijasida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar rivojlandi, korrupsiyaning oldini olishga muhim qadam bo'ldi.

Davlat boshqaruvida shaffoflik tushunchasi yanada mas'uliyatli va samarali faoliyat yuritish uchun asos bo'lib, bu ma'muriy boshqaruv nazariyasida muhim yutuq hisoblanadi.

Ochiqlik va shaffoflik haqiqatdan ham korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim vositalaridan biri bo'lib, u:

1. Hisobdorlikni oshiradi: ochiqlik davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ushlab turishga yordam beradi. Shaffoflik qarorlar qanday qabul qilinayotgani, resurslar qanday taqsimlanayotgani va davlat xizmatlari qanday ko'rsatilayotgani haqida ma'lumot beradi. Bu esa, o'z navbatida, mansabdor shaxslarning hisobdorligini oshiradi;

2. Korrupsiya uchun imkoniyatlarni kamaytiradi: shaffoflik korrupsion sxemalarni yashirishni qiyinlashtiradi. Qarorlar va jarayonlar qanchalik ochiq bo'lsa, korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga qarshi chora ko'rish shunchalik oson bo'ladi;

3. Jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi: ochiq va shaffof faoliyat davlat organlariga jamoatchilik ishonchini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, korrupsiyaga qarshi kurashga jamoatchilikning faol jalb etilishiga olib keladi;

4. Ma'lumot olish imkoniyatini ta'minlaydi: shaffoflik jamoatchilikka davlat faoliyati haqida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Bu esa fuqarolarga qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va davlat organlari faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

Shu sababli, ko'plab davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalarida ochiqlik va shaffoflikni ustuvor vazifa sifatida belgilaydilar.

Mustaqillikdan keyingi yillarda Davlat tashkilotlarining barchasi fuqarolar uchun yopiq bo'lgan, ko'pchilik fuqarolarning ommaviy axborotdan foydalanish imkoniyati bo'lmagan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev rahnamoligida ochiqlik va korrupsiyaga qarshi kurashni tartibga soluvchi qonunchilikning ishlab chiqilishi, albatta shu vaqtgacha bo'lib kelgan "maxfiylik madaniyati"ning qoralanishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasi 33-moddasida:

- har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega;
- har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega;
- Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi deb belgilab qo'yilgan.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi¹.

Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun ko'plab amaliy qadamlar mavjud. Masalan, davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish, davlat budjetining ijrosi haqidagi hisobotlarni muntazam ravishda chop etish, mansabdor shaxslarning daromadlari va mulki to'g'risidagi deklaratsiyalarni ochiq qilish, hamda axborot olish erkinligini ta'minlash shular jumlasidandir. Bundan tashqari, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun jamoatchilik kengashlari va kuzatuv guruhlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining asosiy prinsiplari qilib, ular tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi, ular faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etish belgilangan².

Shuningdek, fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash hamda faoliyatini ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadida barcha davlat tashkilotlarida, ularning ochiqlik sohasida amalga oshiriyotgan ishlarni baholash uchun Ochiqlik indeksi joriy etilgan³. Ushbu indeks asosida barcha davlat tashkilotlari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik

¹ O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi, 2023 yil.

² O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi 2014 yil 5 maydagi O'RQ-369-sonli qonuni.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 14 iyundagi PF-154-sonli farmoni.

jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarligidagi baholash komissiyasi tomonidan har yili baholanib boriladi. Natijasi, Agentlik tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi.

Ochiqlik va korrupsiyaga qarshi kurashni tartibga soluvchi qonunchilikning ishlab chiqilishidan oldin fuqarolar qandaydir ma'lumot, axborot yoki hujjat olish uchun albatta davlat tashkilotlarga murojaat qilishgan. Bu jarayondan davlat tashkilotlarining ayrim nopok xodimlari manfaatdor bo'lishgan. Chunki davlat tashkilotlarining yopiqligi bilan, ishdagi kamchiliklarni yashirishga va fuqarolardan pora talab qilishga shart-sharoit yaratilgan. Shuning uchun ayrim fuqarolarda davlat tashkilotlariga nisbatan paydo bo'lgan salbiy munosabat hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar ham ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Elektron hukumat platformalari, onlayn xizmatlar va ma'lumotlar bazalari davlat xizmatlaridan foydalanishni osonlashtiradi va ma'lumotlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Respublikada davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni tubdan qisqartirish, inson omilini kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi⁴.

Hozirgi kunda davlat xizmatlarini jismoniy va yuridik shaxslar uchun foydalanishga oson, qulay va shaffof shakllarda ko'rsatish ko'lamini oshirish, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat xizmatini ko'rsatishda barcha uchun teng sharoitlarni vujudga keltirish orqali inklyuziv muhitni yaratish maqsadida respublikamizning barcha tumanlarida faoliyat olib borayotgan Davlat xizmatlari markazlari tomonidan 168 ta xizmatlarga davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda. Internet tarmog'i orqali yaratilgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali esa 720 ta xizmatlarga davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda⁵.

Shuningdek, Toshkent shahrida 2020 yilda "Xalq nazorati" elektron portali, davlat tashkilotlari hamda jamoatchilik o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash maqsadida ishga tushirilgan edi.

Ushbu elektron portali, shahar hokimiyatiga kelib tushgan murojaatni avtomatik tarzda aniq ijrochiga zudlik bilan yetkazib beradi, har bir murojaatga muayyan javob muddati belgilanadi va javoblar portalda ochiq holda e'lon qilinadi va uning ko'rib chiqilish jarayonini murojaatchi onlayn kuzatib borishi hamda bajarilganligini mustaqil baholashi mumkin. Agar murojaatchi tomonidan masalaning bajarilganligi tasdiqlanmasa, ushbu masala yechilmaydi va tumani hokimiyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga (KPI) o'z ta'sirini ko'rsatadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2017 yildagi PQ-3430-sonli qarori.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yildagi PF-113-sonli farmoni.

Portal saytida taqdim etilayotgan elektron xizmatlar quyidagi muammolarini hal qilishga qaratilgan.

“Xalq nazorati” orqali uydan chiqmay, avtomobildan, kafeda, do‘konda yoki ko‘chada sayr qilib yurgan paytda ham elektron xizmatlardan foydalanish mumkin.

Buning uchun shunchaki ro‘yxatdan o‘tib, mavjud muammo haqida xabar yuborish kifoya.

Portalning maqsad va vazifalari

- foydalanuvchilar tomonidan yuborilgan xabarlarda ko‘rsatilgan kommunal, infratuzilmaviy, axborot va boshqa turdagi muammolarni hal etish bo‘yicha takliflarni amalga oshirish va kamchiliklarni bartaraf etishda mas‘ul ijrochilar ishini tashkil qilish;

- aholiga elektron makon doirasida davlat va mas‘ul idoralar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish;

- shahar aholisi bilan munosabatlarda “qog‘ozsiz hujjat aylanishi” tamoyilini joriy etish;

- kommunal va boshqa xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida ularni ko‘rib chiqishning shaffof mexanizmlarini yaratish, muddatlarni qisqartirish va muammolarning hal etilishi ustidan ariza beruvchining shaxsiy nazoratini ta‘minlash;

- aholining davlat tashkilotlariga murojaat qilish bilan bog‘liq xarajatlarini kamaytirish⁶.

2025 yil 16-iyun kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan o‘tkazilgan yig‘ilishda bir oy ichida Toshkent shahrida qo‘llanilib kelayotgan “Xalq nazorati” elektron portalini butun respublika bo‘yicha barcha vazirlik, idora, hokimliklarda joriy qilish topshirig‘ini berildi.

Yuqorida ko‘rsatilgan tizimlarning yaratilganligi bilan, byurokratik tusiqlarning kamayishiga, ma‘lumot olishning tezkorligi oshishiga, oshkoralik va shaffoflikning ta‘minlanishiga, inson omilining kamayishiga va eng muhimi korrupsiyaning oldini olishiga erishildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuni ta‘kidlash joizki, ochiqlik va shaffoflik korrupsiyaga qarshi kurashning yagona yechimi emas. Bu boshqa choralar, jumladan, qonun ustuvorligini ta‘minlash, sud tizimini isloh qilish, ta‘lim va tarbiyani kuchaytirish bilan birga olib borilishi kerak bo‘lgan muhim vositadir. Faqat shundagina korrupsiyani to‘liq yengish va adolatli jamiyat qurish mumkin.

Ochiqlik va shaffoflikni targ‘ib qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini ham alohida qayd etish lozim. Nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik faollari hukumat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirib, korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashishda muhim o‘rin tutadi. Ularning mustaqilligi va faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashning muhim shartidir.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik korrupsiyaga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega. Xalqaro tashkilotlar bilan tajriba almashish, ilg‘or amaliyotlarni o‘rganish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash davlatning imijini mustahkamlash va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ochiqlik va shaffoflik jarayonida barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta‘minlash muhim. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati, biznes va ommaviy axborot

⁶ <https://dgov.uz/ru/solution-detail/43/>

vositalari o'rtasida konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yish orqali korrupsiyaga qarshi kurashning samarali strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin.

XULOSA

Aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Korrupsiyaning xavfi, uning oqibatlari va unga qarshi kurash usullari haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish orqali har bir fuqaroni korrupsiyaga murosasiz bo'lishga undash lozim. Bunda ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va nodavlat tashkilotlarning roli katta.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jazoning muqarrarligi prinsipiga qat'iy rioya qilish lozim. Korrupsiyaviy jinoyatlarda aybdor bo'lgan shaxslar, ularning mansabi va mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida javob berishlari shart. Bunday holatlarda ochiq va adolatli sud jarayonlarini o'tkazish va jazo choralarning og'irligi korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashning uzluksiz jarayonidir. Bunda barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki, xalqaro hamkorlik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish mumkin.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi, 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi 2014 yil 5 maydagi O'RQ-369-sonli qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 14 iyundagi PF-154-sonli farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2017 yildagi PQ-3430-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yildagi PF-113-sonli farmoni.
6. <https://dgov.uz/ru/solution-detail/43/>